

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Fizika-matematika fakulteti
Amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrası
Qo'lyozma huquqida
UDK_____

Nosirova Shahnoza Umidovna

MAVZU: Android operatsion tizimida dars jadvali yaratish

5480100 – “Amaliy matematika va informatika” ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Ish ko'rildi va himoya	Ilmiy rahbar _____
qilishga ruxsat berildi”	F.Qosimov
	“ _____ ” _____ 2014
	y.
Kafedra mudiri _____ dots.	Taqrizchi
T.B.Boltayev	_____
“ _____ ” _____ 2014	“ _____ ” _____ 2014
y.	y.

Himoya qilishga ruxsat berildi”
Fakultet dekani _____ SH.M.Mirzaev
“ _____ ” _____ 2014 y.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. ANDROID OPERATSION TIZIMI VA UNING IMKONIYATLARI	7
I.1. Android operatsion tizimi haqida umumiy ma'lumot.	7
I.2. Android operatsion tizimining imkoniyatlari.	17
Birinchi bob bo'yicha qisqacha xulosalar.....	25
II. ANDROID OTDA DARS JADVALI DASTURINING YARATILISH JARAYONI	26
II.1. Android operatsion tizimda dastur tuzish uchun dasturlash muhitini tayyorlash.	26
II.2. Android OT da dars jadvali dasturini yaratish.	39
Ikkinchi bob bo'yicha qisqacha xulosalar.....	46
UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR.....	47
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	48
ILOVALAR.....	49

KIRISH

Muammoning dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda hayotimizning har bir jabhasi jadallik bilan tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan bir paytda axborot komunikatsiyalardan keng foydalanib, zamonaviy texnologiyalar, elektron qurilmalar kabi tushunchalar ham har bir kunimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" nomli risolasida alohida ta'kidlanganidek, "Ma'naviy ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul uslublarini ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur". 2014 yil Prezidentimiz I.Karimov tomonidan "Sog'lom bola yili" deb e'lon qilinishi ham yosh avlodlarni mustahkam oila davrasida ulg'ayishini, ularning yetuk, bilimli va kuchli bo'lib yetishishini, zamon bilan hamnafas yurishini ta'minlash kabi masalalarni ilgari suradi. Yurtboshimiz, ma'naviy sog'lom oila muhitida tarbiyalangan farzandlarimizni el-u yurtning umid-ishonchi, suyanadigan tog'i deb hisoblaydilar: "Baxt-u saodat faqat boylik, molu mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqilli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir". Qolaversa, Prezident I.Karimov tashabbuslari bilan Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 23 maydagi 230-sonli «2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish», shuningdek, «Internet»ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari qabul qilindi*. Oradan bir yil o'tgach, 2002 yil 30 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya

* Xalq so'zi. 2001 yil, 24 may. № 101 (2663). 1-sahifa.

texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni va uning ijrosini amalga oshirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi «2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi» to'g'risidagi qarori e'lon qilindi**.

Tezlik bilan rivojlanib va keng tarqalib borayotgan kompyuter axborot texnologiyalari davrida hayotimizni qo'l telefonlari, cho'ntak kompyuterlari, kompyuterlarsiz tasavvur qilishimiz juda ham qiyin.

Biz bilamizki hozirgi davrda boshqa texnika vositalari qatorida qo'l telefonlari ham takomillashib, murakkablashib, mukammallashib boryapti. Bunda foydalanuvchilar soni esa kundan kunga jadallik bilan oshib boryapti. Yosh boladan tortib keksa kishilargacha qo'l telefon xizmatlaridan foydalanishmoqda.

Hozirda kompyuterlar bilan raqobatlasha oladigan darajada qo'l telefonlari kuchayib ketdi. Ularda ham o'zining maxsus operatsion tizimi, tezkor xotirasi, protsessori mavjud bo'lib, foydalanuvchining doimiy yordamchisiga aylanib qoldi. Bularga misol qilib Blackberry, Apple iPhone, Samsung, HTC, ZTE, LG kabi yirik kompaniyalar ishlab chiqarayotgan smartfonlar va planshetlarni keltirishimiz mumkin. Ulardagi operatsion tizimlar ham sun'iy intellektga qarab takomillashib bormoqda. Shu jumladan, yaqin yillarda o'z faoliyatini boshlagan va hozirgi kunda smartfon bozorining 75 % ini egallashga ulgurgan Android operatsion tizimi yuqori ko'rsatkichlarni namoyish qilmoqda. Bu degani, ushbu OTdan aholining 50-60 foizi foydalanadi. Operatsion tizim foydalanuvchilari qanchalik ko'payib borsa, unda ishlaydigan dasturlarga bo'ladigan ehtiyoj ham shunchalik kattalashadi. Demak, Android uchun mo'ljallangan dasturlarni tuzish ko'proq talab etiladi. Biz ham shuni inobatga olib, hozirgi kunda o'qituvchilarimiz uchun juda qo'l keladigan dasturimiz, ya'ni dars jadvali dasturini tuzishga harakat qilamiz. Amalda bu ko'rinishdagi dasturning mavjud emasligi va bu xildagi dasturlarga talabning yuqoriligi tadqiqotimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Android tizimida ishlaydigan kompyuterlar, smartfonlar va planshetlar ko'payib borayotgani uchun kelajak avlodga nur

** Xalq so'zi. 2002 yil, 1 iyun. № 116 (2944). 1-2-sahifa.

taratuvchi muallimlar uchun, ushbu tizimda ishlaydigan dars jadvalini yaratish jarayoni tadqiqotimiz ob'ekti sifatida olindi.

Android uchun mo'ljallangan dasturlarni yaratish texnologiyalari, vositalari, Java dasturlash tili ilmiy ishimiz predmeti hisoblanadi.

Ishning maqsad va vazifalari. Kelajagimiz poydevori bo'lmish yoshlarimizga texnologik asrning yangi texnikalari, ularning dasturiy vositalari bilan tanishtirish, xususan zamonaviy mobil operatsion tizimlardan biri bo'lmish, eng tez tarqalib borayotgan Android OT bilan tanishtirish, unda ishlaydigan dars jadvali dasturlarining yaratilish usulini ko'rsatib berish ishimizning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi tadqiqot vazifalari belgilandi:

- Android operatsion tizimi haqida to'liqroq ma'lumotlarni qidirib topish, ularni o'rganish, tahlil qilish;
- Android operatsion tizimiga moslashgan gadjetlar (planshetlar, telefonlar, pleyerlar va h.k.)ni o'rganish, yirik kompaniyalar mahsulotlarini tahlil qilish;
- Android operatsion tizimida ishlaydigan dasturiy ta'minotlarning imkoniyatlarini o'rganish;
- Google korporatsiyasining Play Market loyihasi haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- *.apk kengaytmali dasturlarning yaratilishini o'rganish;
- Eclipse SDK dasturini o'rnatish va uni Android uchun moslashtirish;
- Android OT da dars jadvali dasturining yaratish.

Tadqiqotning metodologik asosi

Tadqiqot masalalarini hal qilishda quyidagi **tadqiqot uslublaridan** foydalanildi:

- tadqiqot mavzusiga oid texnologik, psixologik, estetik adabiyotlarni o'rganish;
- boshqa tildagi veb saytlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ular foydalangan usullarni amaliyotda tatbiq etib ko'rish;

– internet forumlari, o'zbek forumlaridagi Android operatsion tizimi bo'yicha fikrlarni o'rganish;

– Android operatsion tizimi uchun dars jadvalini tayyorlash.

Olingan asosiy natijalar. Android OT haqida ma'lumotlar to'plandi. Ushbu OTda dasturiy ta'minot yaratilish usuli o'rganildi. Eclipse va Android SDK muhitlarida dasturlash vositalari o'rganildi. Mavzu bo'yicha dars jadvali tayyorlandi.

Natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Hozirgi o'qituvchilar uchun ko'p tarqalib borayotgan Android OT da ishlaydigan zamonaviy dars jadvali dasturining mavjud emasligi tadqiqot ishimizning yangiligi hisoblanadi. Yaratilgan dasturimiz orqali ushbu sohaga qiziquvchi oliy o'quv yurtlarini bitirayotgan pedagog yoshlar va muallimlar Android OT da ishlaydigan qo'l telefonlariga o'rnatib bimalol ishlatishlari mumkin.

Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi. Ushbu yaratilgan dars jadvalimiz barcha o'qituvchilarimiz uchun juda qulay ma'lumot manba bo'la oladi. Android OT uchun yaratilgan dasturlarni Google korporatsiyasining Play Market loyihasida joylashtirish orqali esa dasturning foydaliligi va foydalanuvchilar talabiga qarab iqtisodiy jihatdan foyda ko'rish mumkin. Bu esa ishimizning iqtisodiy samaradorligidan dalolat beradi.

Ishning hajmi va tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi ____ betdan iborat bo'lib, kirish, mundarija, 2 bob, 4 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan.

I bobda Andtoid Operatsion tizimi va uning imkoniyatlari haqida nazariy ma'lumotlar, fikrlar ilmiy jihatdan o'rganildi.

II bobda Android Otda dars jadvali dasturini yaratilish jarayoni yoritildi.

I. ANDROID OPERASION TIZIMI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

I.1. Android operasion tizimi haqida umumiy ma'lumot

Respublikamizning milliy iqtisodining hech bir tarmog'i samarali va mo'tadil tashkil qilingan axborot infratuzilmasisiz faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Hozirgi kunda iqtisodiyotimizning jadal rivoj topayotgani bois chet el korxonalari bilan hamkorlik qilish, yirik kompaniyalar mahsulotlarining kirib kelishi, xalqning texnik vositalarning oxirgi avlodi bilan ta'minlanishi ko'rinarli darajada sezilmoqda. Xususan, komp'yuterlar, noutbuklar, telefon apparatlari, turli xildagi dasturiy ta'minotlar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda jahon mobil telefonlar bozorining 75 % ini Android operatsion tizimi xizmalaridan foydalanib kelinmoqda.

Android — Linux yadrosida yaratilgan portativ (tizimli) operatsion tizim bo'lib, Kommunikatorlar, planshetli kompyuterlar, elektron kitoblar, raqamli pleyerlar, qo'l soatlari, netbuklar va smartbuklarda ishlatiladi. Google tomonidan sotib olingan Android Inc. kompaniyasi tomonidan yaratilgan. Keyinchalik Google tizim rivojlanishi bilan shug'ullanadigan Open Handset Alliance (OHA) ittifoqini tuzdi. Android yordamida Java dasturlarni tuzish mumkin. Android Native Development Kit Sida va boshqa tillarda yoziladigan dasturlarni yaratadi.

2012-yilning uchinchi choragida sotilgan smartfonlarning 75 % ida Android operatsion tizimi o'rnatilgan edi.

2005-yilning iyulida Google korporatsiyasi Android Inc.firmasini 130 mln. dollorga sotib oladi va o'zi bu operatsion tizimni chiqarishni davom ettiradi. 2007-yilning 5-noyabrida Google Open Handset Alliance (OHA) tuzilganligini e'lon qilib, birinchi ochiq mobil Android tizimini namoyish etdi.

2008-yilning 23-sentabrida operatsion tizimning birinchi versiyasini namoyish etdi. Birinchi versiya chiqqanidan so'ng tizim bir necha marta yangilandi. Bu yangilashlar tizimda aniqlangan xatolarni tuzatib, yangi funksiyalar qo'shdi.

2009-yilda platformaning to'rtta updatelari (yangilashlari) chiqdi. Shunday qilib, fevralda turli xatolarni tuzatadigan 1.1 versiyasi chiqdi. Aprel va sentabrda mos ravishda 1.5 „Cupcake“ va 1.6 „Donut“ updatelari chiqdi. „Cupcake“ versiyasi bir qancha o'zgartirishlar kiritdi: virtual klaviatura, video yozish va tomosha qilish, brauzer va boshqalar. „Donut“da birinchi marta CDMA tizimlarini qo'llash paydo bo'ldi. 2009-yilning oktabrida bir nechta Google akkauntlarini, HTML5 tilidagi brauzerni qo'llaydigan va bir nechta yangiliklar kiritilgan Android 2.0 „Eclair“ operatsion tizimi chiqdi. „Eclair“ (2.1) versiyasida „tirik rasmlar“ paydo bo'ldi va ekran blokirovkasining ko'rinishi o'zgardi.

2010-yilning o'rtasida Google Android 2.2 „Froyo“ versiyasi chiqdi. 2010-yilning ohirida esa Android 2.3 „Gingerbread“ namoyish etildi. Bu updatelar an'anaviy blokirovkani raqamli yoki harf-raqamliga o'zgartirdi, „Kesish, nusxa ko'chirish“, qayta qo'yish funksiyalarini soddalashtirdi va hokazo.

2011-yilning 22-fevralida Android 3.0 „Honeycomb“ namoyish etildi. Uning asosiy yangiligi planshetga moslashtirilgani edi.

2011-yilning 19-oktabrida chiqqan Android 4.0 „Ice Cream Sandwich“ — birinchi universal tizim (ham planshetlarga, ham smartfonlarga moslashtirilgan) chiqdi.

2012-yilda tizimning yangi versiyasi — „Jelly Bean“ chiqdi. U iyunda 4.1 raqami ostida namoyish etilib, oktabr ohirida yangi update chiqqach 4.2ga o'zgardi. Android ostida ishlaydigan birinchi moslama 2008-yilning 23-sentabrda HTC kompaniyasining HTC Dream smartfoni (T-Mobile aloqa operatori tomonidan T-Mobile G1 nomi ostida namoyish etilgan) bo'ldi. Tezda boshqa smartfon ishlab chiqaruvchilari tomonidan Android OT ostida moslamalar chiqarish so'rovlari paydo bo'ldi. Androidning planshetlarga moslashtirilgan 3-versiyasi (Honeycomb) chiqqach planshet ishlab chiqaruvchilariga ham Android yoqib qoldi. Google kompaniyasi ham boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda o'zining „Google Nexus“ moslamalarini Android OT ostida chiqara boshladi. Aynan shu moslamalar birinchi bo'lib yangi versiyalarda chiqadi.

Smartfonlar va planshetlardan tashqari Android OT boshqa moslamalarga ham o'rnatiladi. Masalan, 2009-yilda sotuvga Androidda ishlovchi fotoramka sotuvga chiqdi. 2011-yilda Blue Sky kompaniyasi Android OT ostidagi „aqlli“ i'mWatch soatlarini chiqardi. 2012-yil avgustda Nikon dunyodagi birinchi Androidda ishlovchi fotokamerani namoyish etdi. „Google Nexus“ seriyasida smartfon va planshetlardan tashqari Android ostidagi Nexus Q mediapleyeri mavjud.

2012-yil oktabrda Google boshqaruvchi direktori Larri Peyj Android ostidagi moslamalar soni 500 mln.dan ortgani va har kuni 1,3 mln.ga ko'payotgani haqida habar berdi.

2008-yil 22-oktabrda Google Android OT dasturlarining onlayn do'koni — Android Market ochilishi haqida e'lon qildi. Kelishivga ko'ra yaratuvchilar foydaning 70 %ini, operatorlar esa qolgan 30 %ni olishadi. 2009-yil fevralda AQSH va Buyuk Britaniya yaratuvchilarida Android Marketdagi o'z dasturlari uchun pul olish imkoniyati paydo bo'ldi. Sony Ericsson kompaniyasi dasturlarning onlayn do'koni Android Marketda shaxsiy kanalini ishga tushirdi. U kanalda kompaniya tomonidan tavsiya etilgan dasturlar va o'yinlar berilgan. 2011-yil dekabrda Android Market tuzilganidan beri 10 mlrd. dastur ko'chirib olindi.

2012-yil martda Google kompaniyasi „Kitoblar“, „Android Market“, „Musika“ va boshqa servislarni yagona Google Play servisiga birlashtirdi. Google Play internet do'koni 190ta davlatda ishlaydi, 700 mingdan ortiq dasturga ega, ochilganidan beri 25 mlrd.ta dastur ko'chirib olingan.

Android platformasi uchun maxsus Droid va Roboto shriftlari turkumi ishlab chiqildi. 1.5, OS Android'dan boshlab har bir versiyasi nomi biror-bir shirinlikni ifoda etadi. Versiyalar tartibi bo'yicha nomlar birinchi harflari lotin alfaviti harflariga mos: 1.5 Cupcake («keks»), 1.6 Donut («ponchik»), 2.0G`2.1 Eclair («ekler» yoki «glazur»), 2.2 Froyo («muzlatilgan yogurt» so'zi qisqartmasi), 2.3 Gingerbread («imbir pryanigi»), 3.0 Honeycomb («asalari uyasi»), 4.0 Ice Cream Sandwich («musqaymoq briketi»), 4.1 Jelly Bean («saqichli muz parchasi»), 5.0

Key Lime Pie («laymli pirog»), Lollipop («muz parchasi»), Molasses («melassa») va Nougat («nuga»).

Birinchi ikkitasi mashhur robotlar nomlari bo'lgan: 1.0 Astro («Astro Boy») va 1.1 Bender («Futurama»), ammo ularni mualliflik huquqlari sababli shirinliklar nomiga almashtirdilar.

2011-yil fevral oyi ma'lumotlari bo'yicha Android operatsion tizimi iPhone 4 c iOS ni ortda qoldirib, Buyuk Britaniyada eng ommaviy smartfonlar ro'yxatida yetakchilik qildi. Ekspertlarning taxminlari bo'yicha, bu Android operatsion tizimining mobil operatsion tizimlari bozoridagi global yetakchilikka birinchi qadamidir. IDC oxirgi ma'lumotlariga qaraganda, hozirda «aqlli» devayslarni sotishda Androidning ulushi taxminan 75 foizni tashkil etadi, eng yaqin raqobatchisi — iOS — 2-o'rinda, taxminan 14 foiz bilan ancha ortda qolgan. 2008-yildan Android bozordagi o'z ulushini muntazam oshirib keldi va iOSdan o'zib ketdi hamda Symbianni siqib chiqardi.

Agar Androidning rasmiy saytida kursorni pastki chap burchakdagi robotga olib borilsa, u har xil harakatlar qilishni boshlaydi, bosganda qo'lini silkitadi.

Android- shu yaqin yillarda IT sohasida kirib kelgan va ko'p dasturchilarni, shu operatsion tizim bilan pul topishga undagan “Yashil o'zga sayyoralik” dir. Bu dastur juda ko'p smartphonelarni boshqaruvchi operatsion tizim hisoblanadi. Mobil operatsion tizimlar (windows mobile, symbian) orasida eng mashhurrog'i va keng qo'llaniladigani ham shu tizmdir.

Android operatsion tizimining interfeysi juda qulay yaratilgan bo'lib, ish stoli va menyu orqali dasturlar piktogrammalari ro'yxatini ko'rishimiz mumkin. Eng yuqorida Soat, Zaryad, Operator antennasi signali, GPS, 3G-4G va boshqa ko'plab foydalanuvchiga eslatib turuvchi indikatorlar paneli joylashgan. Ushbu panelni yuqoridan pastga qarab barmoq bilan harakatlantirganda Panel visual ravishda to'liq ekranga tushadi va barcha eslatmalar to'liq ko'rsatiladi.

Nufuzli “Gartner” tadqiqot kompaniyasining hisob-kitoblariga ko'ra, 2016-yilga kelib Android dunyodagi eng mashhur, eng ko'p tarqalgan operatsion tizimga aylanadi. Tahlilchilarning fikricha, kelasi to'rt yil ichida odamlar orasida mobil

qurilmalardan foydalanish judayam kata tezlikda oshib boradi. Eslatib o'tamiz, bugungi kunda butun dunyo bo'ylab Android bazasida ishlovchi qurilmalarning soni 608 millionga teng bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 2,3 milliard donaga yetadi. Aksincha, "Microsoft" korporatsiyasining "Windows" operatsion tizimi bazasida ishlovchi gadjetlar soni hozirgi kunda 1,5 milliard donadan iborat bo'lsa, oradan to'rt yil o'tib bu raqam 2,28 milliardga yetadi. Ana o'shanda Android bu borada "Windows"dan o'zib ketadi. Ekspertlarning ta'kidlashicha, 2016-yilga kelib odamlar shaxsiy kompyuterlarga qaraganda ko'proq smartfon, planshet kabi mobil qurilmalarni ishlatadigan bo'ladi.

Hozirda smartfonlar va planshetlar bozorida iOS va Android asosidagi qurilmalar yetakchilik qilyapti. Yana Windows Phone bor, hozirgi vaziyatda turli usullarda bozordan oz bo'lsada o'rin egallashga harakat qilayotgan, Apple va Microsoftdan farqli ravishda, to'liq ekotizimga ega bo'lgan, Googleda, hozircha, faqat smartfon va planshetlar uchun operatsion tizim mavjud xolos. Chrome OS hisob emas — u faqat veb dasturlar uchun va veb applar hali-veri nativ applarning o'rnini bosolmaydi.

Apple turli qurilmalarni o'zi chiqarsa ham unda foydalanuvchi uchun lozim bo'lgan barcha qurilmalar uchun taklif bor: desktop kompyuteri sifatida Mac-mini, iMac, Mac-pro; noutbuklar — Macbook, Macbook-air, Macbook-pro; iPhone, ipod-touch, ipad va hokazo. Microsoft ham Windowsning so'nggi versiyalaridan so'ng planshet uchun ham operatsion tizimga ega. Ikki kompaniyada ham to'liq ekotizim. Ushbu kompaniya qurilmalaridan dunyoning deyarli barcha davlatlarida foydalanish mumkin (va ular Chrome Book kabi internet talab qilmaydi).

Googleda esa hozirda faqat smartfon/planshetlar uchungina to'laqonli operatsion tizim mavjud. Noutbuk yoki desktop kompyuterlaridan foydalanuvchilar uchun Google biror qurilma taklif qilmaydi. Foydalanuvchilar yo yuqoridagi ikki kompaniya mahsulotlaridan foydalanishlari yoki Ubuntu kabi Linuks operatsion tizimidan foydalanishga majbur. Albatta, ikki xil tizimlarda hech qachon to'laqonli integratsiya bo'lmaydi. Qanaqadir tizimdagi asosiy funksiyalar

uchun sinxronizatsiya (kontaktlar, musiqa) qilish mumkin, lekin boshqa turdagi kontentlarda muammo tugʻiladi (eslatmalar, “todo”lar kabi).

Hozirgi kunda Apple qurilmalari Ayklaud orqali ancha chuqur integratsiya qilingan. Masalan, Contacts, Messages, Notes, Reminders, Calendar, Mail, Photos, Podcasts kabi applar avtomatik sinxronizatsiya boʻladi. Boshqa imkoniyatlari ham koʻp. Apple bimalol yangi-yangi applarni ham iOSga, ham MacOSga qoʻsha oladi, ularning birgalikda ishlashini taʼminlash ham muammo emas. Bundan tashqari, bu kabi imkoniyatlar (ekotizimning toʻlaqlonliligi) foydalanuvchini “ushlab qolish” uchun katta stimul beradi. Applening asosiy yutuqlaridan biri ham shu: kompaniyaning bitta qurilmasini sotib olgan foydalanuvchi uning boshqa qurilmalarini ham sotib olishni boshlaydi.

Microsoft va Apple kabi Google ham desktop operatsion tizimini ishlab chiqarishi va Android bilan toʻliq integratsiya qilishi lozim. Android foydalanuvchilari ham toʻliq ekotizimga ega boʻlishlariga shu kamdek. Google bimalol Linuks asosida yaxshi operatsion tizim yaratishi, unga applarni oʻzining magazinidan sotib/yuklab oladigan qilishi, yangi operatsion tizimga Androiddagi asosiy applarni chiqarishi va ularning sinxronizatsiyasini taʼminlashi unchalik muammo emas.

Mavjud Android foydalanuvchilarining koʻpchilik qismi esa yangi operatsion tizim qoʻyilgan noutbuklarni sotib olishi ehtimoli juda katta. Google esa yana bitta tizimga ega boʻladi; internet u darajada tez boʻlmagan davlatlarda (bizniki kabi) ham unga ishqibozlar koʻp boʻladi (Chrombukni bizning sharoitda ishlatish muammoroq). Agar Google yangi tizimda ishlaydigan noutbuklarni ishlab chiqaruvchilarga tekinga bersa va narxi ham Android smartfonlari kabi arzon boʻlsa, tizimning ommaviylashishi ham tezlashadi. Yana Google TV bilan integratsiya ham juda yaxshi imkoniyat beradi.

Hozirda vatanimizda Android tizimida ishlovchi gadjetlarning aksariyati Samsung, HTC kabi kompaniyalarda ishlab chiqarilgan. Oʻzimizda ham Artel savdo belgisi ostida ushbu operatsion tizimda ishlovchi telefonlar ishlab chiqarilishi yoʻlga qoʻyildi.

2013- yil I choragida «Samsung Electronics» ning operatsion foydasi 7,7 mlrd. dollarga yetdi. Kompaniya foydasining o'sishiga o'rtacha narx toifasidagi smartfonlarning xaridorgir bo'lishi asos bo'ldi, deb xabar qiladi «Reuters».

Bu – «Samsung» daromad ko'rish borasida rekord o'rnatib kelayotgan ketma-ketiga beshinchi chorak, ushbu muddat ichida kompaniya 46 mlrd. dollar tushumga erishgan. Tahlilchilar tahmin qilishlaricha, ikkinchi chorakda ham koreyslar rekord qo'yishlari ehtimoli katta - Galaxy S4 savdosi oldingi rekordlardan ham o'zib ketishi kutilmoqda.

Galaxy S va Galaxy Note «Samsung» tushumlarining keskin o'sishiga salmoqli hissa qo'shib, uni oliy toifa smartfonlar bozorida «Apple»dan keyin ikkinchi o'rinni egallashiga xizmat qildi. Lekin, «elita»dan tashqari, Koreya kompaniyasi rivojlanayotgan mamlakatlardagi xarid imkoniyati torroq mijozlarini ham unutib qo'ygani yo'q. Kompaniya ularga o'rtacha narx toifasidagi va kamchiqim modellar - Samsung Rex i Galaxy Pop kabilarni taklif qilmoqda.

Mutaxassislar «Samsung» muvaffaqiyatlarini kompaniyaning aynan arzon smartfonlar bozoridagi faolligi bilan bog'lamoqdalar.

Yakunlangan chorakda «Samsung Electronics» ning 30dan ziyod modellariga talab katta bo'ldi. Ushbu modellar deyarli barcha narx toifalarida bo'lib, bunday kuchli talab kompaniyaning yakuniy muvaffaqiyatini va yangi rekordini ta'minladi. Shu bilan birga, tahlilchilarga ko'ra, 2012- yil oxiridagi yangi yil savdolaridayoq «Samsung» o'zining asosiy raqobatchisi – «Apple»ningbozorini «sindirib» ulgurgandi.

Beshta turli tahliliy sharhlarga tayangan holda, «Reuters» ta'kidlaydiki, «Samsung» 2013- yil I choragida 68-70 mln. dona smartfon sotgan. Eslatib o'tamiz, 2012- yilning shu davrida 63 mln.ta smartfon sotilgandi.

«Reuters» tahlilchilari tahminiga ko'ra, joriy yil dastlabki uch oyida Apple iPhone savdosi 30 foizga qisqarib, tahminan 30 mln. dona qurilma sotilgan. 2012- yilning oktyabr-dekabr oylarida «tishlangan olma»chilar 47,8 mln.ta iPhone sotishgandi.

Android operatsion tizimida nafaqat planshetlar yoki telefonlar, balki boshqa turdagi texnikalar ham ishlashi mumkin. Bularga misol qilib, zamonviy ofislarda o'rnatilgan TimeMan qurilmasini keltirish mumkin. Xodimlarning kirishi va chiqishi barmoq izlarini skanerga qo'yish orqali yoki maxsus ID kartani infraqizil nurlı datchikka qo'yish orqali qayd qilib boriladi. Datchikdan olingan ma'lumotni ma'lumotlar ombori bilan solishtirish, ekranga shaxs haqida ma'lumotni chiqarish kabi operatsiyalar esa aynan Android operatsion tizimida bajariladi. Banklardagi bankomat tizimlari, zamonaviy uylarni qo'riqlash xizmatlari ham shunga misol bo'ladi.

Umuman olganda, Android operatsion tizimi internet uchun hamda ko'rish (rasm, web-sahifa, video) uchun juda qulay bo'lgan tizimdir. Bu esa o'z navbatida hozirgi foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondiruvchi tizimning aynan o'zidir. «Hozirda Android noqulay ahvolda qolgan – tizim yaxlitlikni yo'qotib bormoqda, chunki har kim operatsion tizimni o'ziga moslashtirishga urinmoqda,- dedi Stiven Elop, "Nokia" bosh ijrochi direktori. – Bunga qarshi turish uchun, keyingi paytlarda "Google" uni yopiqroq tizimga aylantirishga harakat qilayotgani ko'zga tashlanyapti. ».

Fragmentlashuv muammosi, ya'ni bitta OT ning turli qurilmalar uchun turlicha shaklda yig'ilishi masalasi Androidning eng katta "bosh og'rig'i" bo'lib kelgan. Chunki, Androidga asoslangan qurilma yaratmoqchi bo'lgan har bir ishlab chiqaruvchini o'z mahsuloti uchun original, noyob ko'rinish va funksiyalarni jamlashni istaydi. Natijada yaxlitlik yo'qolib, talqinlar soni haddan ziyod ko'payib ketdi.

"Google" esa, Stiven Elop qayd etganidek, keyingi yillarda bu ahvolni o'zgartirishga urinmoqda. Android SDK ni qo'llashning yangi talablarida Android o'rnatilgan qurilmalar ishlab chiqaruvchilari bu OT asosida boshqa, hosila tizimlar yaratishdan tiyilishlari ko'rsatib o'tilgan.

Bundan tashqari, "Google" tomonidan "Motorola Mobility"ning sotib olinishi tufayli, kompaniya mustaqil ravishda o'zining smartfonlarini chiqarib, asta-sekin

Androidni yopiq tizimga aylantiradi, degan shov-shuv tarqaldi, deyiladi cnews.ru saytida.

Stiven Elop soʻzlariga koʻra, “Nokia” Windows Phone asosida yarata olgan innovatsion yechimlaridan toʻla qoniqishga ega. Kompaniyaning oxirgi mahsuloti – “Microsoft” yaratgan WP 8 OTga asoslangan Nokia Lumia 920 ning muvaffaqiyati bu qoniqishning asosli ekanligini koʻrsatadi.

Uning aytishicha, kompaniya bundan keyin ham “Microsoft” bilan hamkorlikni davom ettiradi va oʻzining arzon smartfonlari liniyasi – Nokia Asha ilgari surishga katta eʼtibor beradi. Ushbu qurilmalar Android iPhonlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlarda bemalool raqobatlasha oladi.

«Biz “Microsoft” bilan “Windows Phone” asosida muvaffaqiyatli innovatsiya yarata oldik va endi uning narxini tushirishga eʼtibor beramiz, - deya vaʼda berdi Stiven Elop. – Vaqti kelib, siz uning Android bilan qanday raqobat qilishini koʻrasiz. Shu bilan birga, biz qatʼiy ishonch bilan ayta olamiz: Asha bazasida smartfonlar chiqarishni davom ettiramiz va bu bilan Androidga eng quyi narxli smartfonlar bozorida zarba beramiz».

Shunday ekan, “Nokia” telefonlarining Android bazasida chiqishini kutmasa ham boʻladi. Bu-ku, mayli lekin Stiven Elop bayonotidagi boshqa masala hammani oʻylantirib qoʻydi. Stiven Elop Android yopilishi haqida gapirganda nimani nazarda tutdi? Bayonot mazmuniga koʻra, “Nokia” Androidning iOS kabi yopiq tizimga aylanishidan xavotirda. Biroz oldin “Google” kompaniyasi oʻz mahsulotidan foydalanishga baʼzi cheklovlarni qoʻyganligi smartfon ishlab chiqaruvchilarni sergak tortirgan boʻlsa, ajab emas.

Joriy yilning ikkinchi choragida (aprel-iyun oylari) sotilgan Google internet-korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Android mobil operatsion tizimi asosida ishlovchi “aqlli” telefonlar soni 2010-yilning xuddi shu davriga nisbatan 379 foizga oʻsdi. Canalys tadqiqot agentligi tomonidan eʼlon qilingan hisobotga koʻra, 2011-yilning ikkinchi choragida jahon bozoriga 51,9 million dona Android-smartfon chiqarilgan.

Jahon smartfonlar bozori esa hisobot davrida yilma-yil 73 foizga o'sib, joriy yilning aprel-iyun oylarida butun dunyo bo'ylab 107,7 million dona smartfon sotilgan. Xususan, bunda Android-smartfonlarning ulushi 48 foizni tashkil qildi va u bu sohada yaqqol yetakchiga aylandi.

Apple korporatsiyasi esa bu yilning aprel-iyun oylarida jami 20,3 million dona iPhone smartfoni sotishga muvaffaq bo'lib, uning iOS operatsion tizimi jahonda 19 foiz ulushga ega bo'ldi va "afsonaviy" Symbian mobil platformasini uchinchi o'ringa siqib chiqardi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda BlackBerry OS asosida ishlovchi smartfonlar savdosi ham yilma-yil hisoblaganda 11 foizga o'sdi, biroq Research in Motion (RIM) kompaniyasining jahon bozoridagi ulushi biroz qisqardi.

Nokia bilan hamkorlikda Windows Phone 7 bazasida ishlovchi ilk qurilmalar seriyasini ishlab chiqarish arafasida turgan Microsoft esa joriy yilning ikkinchi choragida bozorning atigi 1 foiz ulushiga egalik qildi xolos. Ushbu davrda Windows Phone 7 bazasida ishlovchi 1,5 million dona smartfon sotilgan.

Janubiy Koreyaning Samsung kompaniyasi o'tgan uch oy mobaynida jahon bozoriga 17 million dona smartfon yetkazib berdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning xuddi shu davriga nisbatan 421 foizga ko'p demakdir. Shunday qilib, koreys kompaniyasi "aqlli" telefonlar savdosida faqatgina Apple korporatsiyasidan ortda qolmoqda xolos.

New York Times nashrining Bits (Business - Innovation - Technology - Society) blogida bir qiziqarli xabar paydo bo'ldi. Uni xabar emas, balki muallifning bir taxmini desak to'g'riroq bo'lar: chunki postda Amazon kompaniyasining Android operatsion tizimi bo'yicha tajribasi bor programmerlarni ishga taklif qilayotgani va bu narsa Kindle bukriderining Androidga asoslangan yangi versiyasi ustida ish olib borilayotganidan darak berishi haqida so'z boradi.

O'tgan yillar davomida Amazon kompaniyasi o'zining juda ixcham, shu bilan birga arzon bo'lgan Kindle elektron bukriderini sotuvga chiqarib, ancha muvaffaqiyat qozondi. Ammo, iPad 2 atrofidagi shov-shuvlar, bir necha o'nlab Androidga asoslangan yangi planshet modellarining asta-sekin bozorlarni egallay

borishi Amazon Kindle ning kelajagi qanday bo'lishi haqida turli gap-so'zlarga sabab bo'lmoqda.

Shuni ham e'tibordan qochirmaslik kerakki, Android platformasida yuz minglab ilovalar taklif qilib turilgan bir sharoitda tubdan yangi operatsion tizim ishlab chiqish uchun Amazon kompaniyasidan juda ko'p vaqt hamda kuch talab qilinadi.

I.2.Android operasion tizimining imkoniyatlari

Ko'pchilik Androidning ko'p tarmoqli imkoniyatlari va yashirin funksiyalari borligini taxmin qilsalar kerak. Shuningdek, Androidning sirlari smartfon yoki planshetning qo'shimcha imkoniyatlari uchun foydalanish mumkin, qaysiki iste'molchining boshqaruvida topib bo'lmaydi.

Androidning imkoniyatlari ro'yxati yosh va o'rta yoshli foydalanuvchilarga mo'ljallangan.

Usta foydalanuvchilarga menga bu kerak emas, bu qiziqarli emas deb aytishlarini taqiqlagan bo'lur edim. Kimki bu yo'lni bosib o'tgan bo'lsa oldinga qarab boraversin.

Kelinglar Androidning yashirin funksiyalarini o'rganamiz.

1. Kontaklar ro'yxatiga my murojat qilish. Androidda telefon qo'ng'irog'ining qulaylik darajasi OC Symbianga nisbatan kamroq. Lekin bu masala ancha tez hal bo'lishi mumkin. Ko'p telefon qilinadigan ob'ektni ish stoliga chiqarib qo'yish kerak. Buni quyidagi tartibda bajaramiz.

a) Ish stolining bo'sh joyini toki yozuv chiqqanicha bosib turamiz toki ob'ekt paydo bo'lgunga qadar.

b) Keyingi ish “Добавить ярлык” ni bosamiz.

s) Keyin bizga nima kerakligini tanlab olamiz. So'ngra “Прямой набор номера”, “Персональное сообщение” ni tanlaymiz. Agar “Прямой набор номера” tugmasini bosganda to'g'ridan-to'g'ri kerakli obonentning raqami teriladi va qo'ng'iroq qilish mumkin. “Персональное сообщение” –xat yozish imkoniyati tug'iladi.

Kontakt- tugmasini bosganda kerakli obonentga qo'ng'iroq yoki xat yozish mumkin bo'ladi.

2. Ovoz bilan raqam terish-topish. Ish stolining birida Androidning Google tugmasi o'rnatilgan. Klaviaturada esa mikrafon rasmchali tugmacha bor. Qidiruv haqida hamma narsa ayon. Mikrafon esa odam ovozini yozma ravishda aks etishi uchun ximat qiladi va ekranda tanlangan tilda aks etadi.

3. Tezda Android funksiyalariga kirmoqchi bo'lsangiz ekranning yuqori qismini bosib qo'lni uzmasdan pastga olib keling shunda funksiya menyusi ochiladi. Wi-Fi, Bluetooth ovozi funksiyasi yoki 3Gga ishlashni GPRS almashinuvini yoqiladi. Xilma-xillik soni aniq mualliflik qurilmasi yoki jihoz turiga bog'liq.

4. Ish stolining miqdori Android jihozining foydalanuvchi shaxs o'zi qancha ish stoli bo'lishini boshqara oladi. Bir nechta ish stoli yaratish uchun ish stolini bo'sh joyini uzluksiz bosib turiladi toki menyu chiqmangucha. Keyinchalik “Настройки начального экрана” ni tanlaymiz keyin “Дополнительные параметры” ish stolining miqdorini aniqlash uchun. Ish stolining sonini o'zgartrishning yana boshqa usullari ham bor.

5. Aniqki ochilgan programmani, agar foydalangan ochilgan dasturdan chiqsa uni yopmaydi balki olib qo'yadi. Bu foydalanish resurslari sistemasini dastur fon rejimda ishlagani uchun oshiradi. Foydalanuvchining o'zi ishni o'chirish uchun keyingi harakat amalga oshiriladi. “настройки” ga kirib keyin “приложение” ni bosamiz so'ng “Управление приложений ” ga va keyin “Запущенные” keraksiz programmani yoramiz. Принудительное завершение bu ishlarni bajarish yoqmayotgan bo'lsa shunchaki TASK Killer bossangiz hammasi o'z-o'zidan yechiladi. Garchi bu sistema ancha vaqt yechilmagan programmalar bo'lsa ham ... imkoniyatiga ega.

6. Ochilgan programmalar ro'yxatdagi ochilgan programmalarini ko'rish uchun “домой” tugmasini muddatli bosish kifoya.

7. Ish stoli. Agar foydalanuvchi bir necha ish stoli o'rnatgan bo'lsa va smartfonni ochgan paytda ko'z oldida aynan birini bo'lishini istasa, Android 4-

sirida keltirilganlarni qilish kerak. Shuningdek ish stoli “Home” tugmachasini bosishda paydo bo’ladi.

8. Yo’qotish boshqa joyga ish stolidan o’rnatish, o’zgartirish hajmi ko’rinishini yangilash mumkin. Buning uchun kerakli tugmachasini bosib turib kerakligisini o’rnatish mumkin.

9. “Google” xizmatlari iste’molchi yangi kontakt yoki kalendarga yangi yozuv sistema axborotlarini saqlashni so’raydi. Telefonda yoki “Google” akkauntiga ochishni so’raydi.

10. “Google” xizmatlari bilan yoki telefon yoqilish vaqtida sistema “Google” akkauntini ochishni so’raydi.

Doimiy vositalar yordamida o’chiriladi, bu holat esa internet-ula. Agar iste’molchi yangi kontakt yaratganda yoki kalendarga yangi yozuvni kiritish kerak bo’lganda, sistema ma’lumotni telefonda yoki Google akkauntiga saqlashni so’raydi. Yana bir android siri bu Internet trafikni boshqarish ko’pchilik dasturlar va Androidning jarayonini ham Android internetga ulanish kerak.

Ustunliklari

- Ba’zi sharhlovchilar Android qator hollarda veb-syorfing, Google Inc. servislari bilan mosligi kabi va boshqa xususiyatlari bilan o’z raqobatchilaridan biri Apple iOS kompaniyasiga qaraganda o’zini yaxshi namoyon qilishini aytadilar. Android, iOS ga nisbatan ochiq platforma hisoblanadi, bu holat unda ko‘proq funksiyalarni amalga oshirishga imkon beradi.

- iOS va Windows Phone 7 dan farqli ravishda, Androidda fayllarni qabul qilish va uzatishga ham imkon beruvchi Bluetooth oqimini to’la amalga oshirish mavjud. FTP-serverini, tarmoqqa ulanish nuqtasi rejimi (PAN xizmati) va Bluetooth orqali guruhli birinchi darajali tarmoqni (GN xizmati) amalga oshirish mavjud.

- Android-apparatlarida, odatda, USB va xotira kartalarini olmasdan turib boshqa uzatish usullari tezlik cheklanishlaridan qat’iy nazar kompyuter fayllarini tezlikda telefonga ko’chirishga imkon beruvchi, MicroSD-kardrider mavjud; bundan tashqari, iOS va Windows Phone 7 sinxronlashtirish dasturi (iTunes va

Zune), orqali amalga oshirishdan tashqari, biror-bir fayllarni telefonga/telefonidan to'g'ridan-to'g'ri uzatish mumkin emas, Android operatsion tizimidagi telefonlar esa xotira kartasi fayllar tizimini USB mass storage device («fleshka») kabi uzatish imkoniga ega.

- Avvaldan dasturni «tekshirilmagan manbalardan» (misol uchun, xotira kartasidan) o'rnatish taqiqlanishiga qaramay, ushbu cheklash apparat sozlashlarida nishlarsiz dasturlarni telefonlar va planshetlarga o'rnatishga imkon beradi (misol uchun, Wi-Fi-ulanish nuqtalariga ega bo'lmagan va odatda juda qimmat turadigan mobil internetga pul sarflashni istamaydigan foydalanuvchilar uchun), hamda barcha istaganlarga Android uchun ilovalarni bepul yozish va o'z apparatida test sinovlaridan o'tkazish imkonini beradi, shu bilan birga, iOS va Windows Phone 7 da hatto o'z dasturlarini tarqatish istagi bo'lmaganda ham loyihachining qayd etish ro'yxatini sotib olishi kerak bo'lardi.

- Android ARM, MIPS, x86 kabi turli apparatli platformalarda foydalanish mumkin.

- Ilovalar boshqa muqobil Google play magazinlari mavjud, misol uchun Amazon'dan Appstore for Android, Opera Store, Yandex.Store.


Android A dan Я gacha foydalanish uchun 10 ta eng yaxshi maslahat.

Androidning operatsion sistemalari siz uchun noqulay bo'lishi mumkin, garchi siz shu paytgacha boshqa smartfon bilan ishlagan bo'lsangiz ham, 10 ta mutaxassislarning maslahatidan ham yaxshi narsa bormi.

10. ta kata va kerakli maslahat.


1. Adobe Flashdan talabga muvofiq foydalaning Androidga telefonini tanlaganigizdan darak, bu internetdan foydalanishning muammolarini o'zidan o'zi yechiladi.

O'zingizning brauzeringizni oching va “меню” tugmasini bosing. U yerda “меню” ni topasiz, keyin esa “Включить плагины” ("Enable plug-ins") buyrugini toping. Uni bosib "По требованию" ("On demand") ni tanlang endi, bu betni ochilishi bilan uni ko'rib yo'qotish uchun “Flash” ni bosing.



1.2.1-rasm. Plaginni o'chirish va yoqish.

2. WiFi dagi uyqu rejimini o'chirich. Bu samarali hisoblansada, lekin bizga ishoning. Agar butun kun davomida WiFi ga ulanib va undan tez-tez foydalansangiz bu batareyani tejaydi. Telefoningizdagi knopkani bosib “меню” ga kiring. Ro'yxatdagi simsiz ulanishlar va to'rlar (Wireless & networks), keyinchalik WiFi ga ulanishni tanlang. Biz uchun muhimi "**WiFi** sleep policy", "Never" ni tanlaymiz. Shu yo'l bilan siz telefoningizni 3G yoki 4G da ulanishni oldini olasiz. 3G va 4G ulanish batareyaning energiyasini tejaydi.



1.2.2-rasm. WiFi dagi uyqu rejimini o'chirich.


3. Home Screen ni o'rnatish. Buni amalga oshirish uchun bir necha variantlar bor. Bunda Androidning ko'p foydasi bor. Бекграунд yoki tabiiy aboyni tanlashdan tashqari yana ko'pgina kerkli ma'lumotlar olish imkoniyatiga egasiz.

Ko'pchilik "виджет" larda obi-havodan boshlab o'yinlargacha bor. Androidda imkoniyat juda ko'p. Ayrim masalalar "меню" da bor. Bu bizlarni boshqa to'plamlarga uzatadi. Keyin Facebook . Shuningdek boshqa to'plamlar ham yaratish mumkin. Biz nima yuklaganimizni ko'rish uchun bo'sh Home Screen tugmasini bosib turamiz. Kerakli obyektни olib o'zimizga qulay qilib o'rnatamiz. Keraksiz bo'lsa виджет/ярлык/папку tugmalarini bosib axlat karzinasiga tashlashimiz mumkin. Bu telefonga zarar qilmaydi balki bosh ekranni tozalaydi.



1.2.3-rasm. Home Screen ni o'rnatish.

4. SD kartaga ma'lumotni o'tkazish . Androidning 2.2 (Froyo) versiyasidan boshlab barcha ma'lumotlarni SD kartaga saqlash mumkin. Bu yo'l bilan telefon resurslarini bo'shatadi.



1.2.4-rasm. SD kartaga ma'lumotni o'tkazish.


5. "Sideloading" ga ruxsat berish. Bu so'z xoxlagan biror manbani Android

bozorida boshqalaridan o'rnatish deganidir. Bundan tashqari Android uchun yana takliflar ham bor buni hech qanday zarari yo'q. Home Screen dan “меню” ni topib unga kiramiz. Ekraning yuqorisidagi “Неизвестные источники” ochiladi. Bayroqchani oling va ogohlantirishni o'qing. Agar siz AT&T ga ega bo'lsangiz sizga bunday imkoniyat kerak bo'lmaydi.



1.2.5-rasm. “Sideloadning” ga ruxsat berish.


6. Olingan ma'lumotlarni o'chirish. 1500000 dan ziyod Android bozori bor. Ularni imkoniyati juda ko'p. Home Screen “меню” ga kirib o'zingizga ro'yxatdan keraklisini olasiz.



1.2.6-rasm. Olingan ma'lumotlarni o'chirish.


7. Ringtonlar uchun to'g'ri joy toppish tanlovi. Android telefonlarda sevimli musiqalarni o'rnatish mumkin. Keragini MP3 ga yoki oddiy formatda olib uni

o'zini kompyuteringizda saqlang. Keyin unga telefonni ulab "media" papkasini toping. Agar bunaqasi bo'lmasa o'zingiz tayyorlang. Bu papka ichiga ringtonlaringizni : "notifications", "ringtones" yoki "alarms" laridan biriga joylashtiring. Endi telefonni kompyuterdan o'chiramiz.



1.2.7-rasm. Ringtonlar uchun to'g'ri joy toppish tanlovi.

8. Displayingizdagi yarqiroqlik darajasini o'zgartring. Ekrandan qat'iy nazar har doim sizdan yarqiroqlik darajasi so'raladi. Bu yerda sizdan telefonning yarqiroqlik darajasi so'raladi. Uni o'zgartring. Bu ham vidjet yaratish imkonini beradi.




1.2.8-rasm. Displayingizdagi yarqiroqlik darajasini o'zgartring.

9. Turli xidagi ovozlarning darajasini o'rnatish. Ovozni boshqarishdan tashqari

“МЕНЮ” ham qaysiki sizning imkoniyatingizni kengaytiradi. Bu yerda yana yashirin fayllar ham bor.

